



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

TEXNALOGIYA VA IJODIY FIKRNING TUTASHGAN NUQTASI – SU'NIY INTELEKT SAN'ATI

Xolbekova Baxtigul Abdunabiyevna
Qarshi Davlat Univeriteti tayanch doktoranti,
Qarshi, O'zbekiston.
Email: baxtigulxolbekova467@gmail.com.
Tel: (99) 068 47 60

Anotatsiya. Bu maqolada su'niy intellekt san'ati, uning texnologik asoslari, ijodiy jarayonlardagi roli va kelajakdagi imkoniyatlari, jamiyatda keltirib chiqaradigan bahs munozaralari haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: ai art, vizual asarlar, texnologiya va san'at, inson ijodkorligi, haqiqiy rassomlik qadri, an'anaviy mahorat.

НА СТЫКЕ ТЕХНОЛОГИЙ И ТВОРЧЕСКОЙ МЫСЛИ: ИСКУССТВО, СОЗДАННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ

Аннотация. В данной статье рассматривается искусство искусственного интеллекта, его технологические основы, роль в творческих процессах и будущие возможности, а также дискуссии, которые он вызывает в обществе.

Ключевые слова: искусство, созданное с помощью ии, визуальные произведения, технологии и искусство, человеческое творчество, ценность подлинного искусства, традиционное мастерство.

THE INTERSECTION OF TECHNOLOGY AND CREATIVE THOUGHT – ARTIFICIAL INTELLIGENCE ART

Abstract. This article discusses the art of artificial intelligence, its technological foundations, its role in creative processes and future possibilities, and the debates it raises in society.

Keywords: ai art, visual works, technology and art, human creativity, the value of true art, traditional craftsmanship.

KIRISH

Sun'iy intellekt va inson ijodkorligi o'rtasidagi uyg'unlikni tahlil qilish hamda texnologiyaning zamonaviy san'atdagi o'rnini yoritib berishdir. Sun'iy intellekt inson

ijodining o'rnini bosuvchi emas, balki rassomga yangi imkoniyatlar beruvchi "aqli qurol" ekanligini dalillash.

MATERIALLAR VA METODLAR

Midjourney, DALL-E 3, Stable Diffusion, Suno AI, ChatGPT, Claude. Ularning ishlash natijalari va imkoniyatlari amaliy material bo'lib xizmat qiladi. Nature, IEEE, ACM kabi bazalardan olingan sun'iy intellekt va generative modellar bo'yicha so'ngi tadqiqotlar, raqamlin san'at tarixi va san'at falsafasiga oid adabiyotlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sun'iy intellekt insonning ijodiy g'oyalarini vizuallashtirish va tajriba o'tkazish tezligini 10-15 barobargacha oshirishi aniqlandi. Sun'iy rassom yoki dizaynerning o'rnini egallamaydi, balki g'oya va yakuniy mahsulot o'rtasidagi vaqtni qisqartiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Sifatli va estetik qiymatga ega san'at asarini yaratishda yetakchi rol baribir insonning badiiy diqqat-e'tibori, to'g'ri berilgan konseptual buyruq hamda yakuniy tanloviga bog'liqligi isbotlandi.

Sun'iy intellekt inson kabi his tuyg'u yoki tajribaga ega emas. U faqat mavjud ma'lumotlar bazasini qayta ishlaydi. Sun'iy intellekt yaratgan asarlarga mualliflik huquqining berilmasligi yoki rassomlarning mualliflik ishlaridan ruxsatsiz model o'qitishda foydalanishi zamonaviy huquqiy va etik inqirozlarni keltirib chiqarmoqda. An'anaviy illyustrator va dizaynerlar roli o'zgarmoqda. Endilikda texnik chizish va ishlov berishdan ko'ra konseptual fikrlash hamda kuratorlik birinchi o'ringa chiqmoqda.

Sun'iy intellekt millionlab ranglar, piksellar va ohanglarni matematik jihatdan mukammal tarzda birlashtirishi mumkin, ammo asarga ruh, ma'no va insoniy dardni bag'ishlash faqat ijodkorning shaxsiyatiga bog'liq. Haqiqiy san'at algoritm qatorlarida emas, balki o'sha algoritmnin maqsadli boshqarayotgan insonning qalbiga yashashda davom etadi.

Sun'iy intellekt hayotimizning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelayotgan bir davrda, san'at olami ham bundan mustasno qolmadi. AI Art – bu sun'iy intellekt

algoritmik tizimlari va mashinali o'rgatish (Machine Learning) modellaridan foydalangan holda yaratiladigan visual asarlar yo'nalishidir. Bugungi kunda AI Art shunchaki vaqtinchalik texnologik tendensiya emas, balki tasviriy san'atning yangi bosqichiga aylandi. Buning natijasida texnologiya va san'at o'rtasidagi bog'lanish yanada kuchaymoqda. Sun'iy intellekt bu jarayonda muhim rol o'ynaydi, chunki u ijodiy fikrni yangi darajaga olib chiqishga qodir. Sun'iy intellekt – bu kompyuter tizimlarining insonning fikrlash qobiliyatini takrorlashga qaratilgan texnologiya. U ma'lumotlarni tahlil qilish, o'rganish va natijalarni chiqarish imkonini beradi. San'at esa insonning hissiyotlari, fikrlari va tajribalarini ifodalash vositasi sifatida paydo bo'lgan. Sun'iy intellekt san'ati -bu ikki sohaning tutashuv nuqtasidir. U inson ijodkorligiga yangi imkoniyatlar yaratadi va san'at asarlarini yaratishda yangi yondoshuvlarni taklif etadi. Sun'iy intellekt san'ati asosan mashinani o'rganish, chuqur o'rganish va tabiiy tilni qayta ishlash kabi texnologiyalar asosida ishlaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida kompyuterlar katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, yangi va qiziqarli san'at asarlarini yaratishga qodir bo'ladi.

Mashina o'rganish - bu texnologiya kompyuterlarga tajriba orqali o'rganish imkonini beradi. Masalan, mashina o'rganish algoritmlari yordamida kompyuterlar mavjud san'at asarlarini tahlil qilishi va yangi asarlarni yaratishi mumkin. Chuqur o'rganish - bu esa sun'iy neyron tarmoqlaridan foydalanib, murakkab ma'lumotlarni qayta ishlashga imkon beradi. Chuqur o'rganish yordamida kompyuterlar tasvirlar, ovozlar va matnlar ustida ishlay oladi. Tabiiy tilni qayta ishlash - texnologiya yordamida kompyuterlar inson tilini tushunishi va unga javob berishi mumkin. Bu ijodiy yozuv, she'r yoki hikoyalar yaratishda qo'llaniladi.

Sun'iy intellekt san'ati ijodiy jarayonga yangi qarashlarni olib keladi. U ijodkorlarga yangi g'oyalarni ishlab chiqishga yordam beradi, shuningdek, ularning ish jarayonini tezlashtiradi. Misol uchun, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan asarlar ko'pincha inson ijodidan farq qiladi, chunki ular yangi uslub va shakllarni taklif etadi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt san'ati ko'p hollarda inson ijodkorligi bilan birgalikda ishlaydi. Masalan, bir nechta rassomlar sun'iy intellektdan foydalanib, o'z asarlarini yaratish jarayonida yangi yondoshuvlar sinab ko'rishmoqda. Shu sababli sun'iy intellekt san'ati kelajakda yanada rivojlanishi kutilmoqda. U nafaqat san'at asarlarini yaratishda, balki san'at ta'limida ham muhim rol o'ynashi mumkin. O'qituvchilar sun'iy intellekt yordamida talabalarga ijodiy fikrlashni rivojlantirishda yordam berishlari mumkin. Shuningdek sun'iy intellekt san'at asarlarini shaxsiylashtirish imkonini beradi. O'rnak qilib olsak, foydalanuvchilar o'z didlariga mos ravishda san'at asarlarini yaratish uchun sun'iy intellektdan foydalanishi mumkin. AI Art generatorlari neyron tarmoqlari asosida ishlaydi. Ushbu tizimlar millionlab tayyor tasvirlar, rasmlar uslublar va ularning matnli tavsiflarini tahlil qilish orqali ta'lim olgan.

- Prompt ya'ni yo'riqnoma - bunda rassom yoki foydalanuvchi matn ko'rinishida o'z g'oyasini kiritadi (masalan: tuman qoplangan, sirli tog' cho'qqisidagi shisha ibodatxona 8k pikseli. Agar g'oyani biroz o'zgartirib berish orqali kartinani o'zgartirish mumkin.)



- Vizuallashda algoritm matn ma'nosini anglab, o'z ba'zasidagi bilimlar asosida noldan yangi va takrorlanmas tasvirni shakllantiradi. AI Art visual content yaratish sohasini tubdan o'zgartirib, bir qancha yo'nalishlarda yetakchi o'ringa chiqmoqda:

1. Sanoatda unumdorlikni oshirish - reklama, dizayn, GameDev ya'ni o'yinlar yaratish va kinematografiyada konsept-artlar va ilk xomaki eskizlarni yaratish vaqti haftalardan daqiqalarga qisqardi.

2. Demokratizatsiya - qalam yok mo'yqalam tutish mahoratiga ega bo'lmagan, lekin kuchli tasavvur va g'oyaga ega bo'lgan insonlarga ham san'atkorga aylanish imkoniyatini berdi.

3. Yangi kasb va ko'nikmalar - "Prompt engineering" ya'ni AI uchun to'g'ri so'rov tayyorlash hamda suniy intellekt bergan natijalarni qayta ishlab, mukammallikka yetkazuvchi "AI-Rassom maqomi paydo bo'ldi.

Shu bilan bir qatorda AI Art tez rivojlanayotgan bo'lsada, jamiyatda jiddiy bahs-munozaralarni keltirib chiqarmoqda. Avvalombor mualliflik huquqi muammosi - AI modellarini o'qitishda tirik rassomlarning asarlaridan ruxsatsiz foydalanilgani huquqiy va etik e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. Yana bir tarafdin haqiqiy rassomlik qqadri - AI ba'zan kutilgan aniq detallarni yoki inson anatomiyasini mukammal yetkazib berolmaydi, bu esa qo'shimcha ishlov berishni talab qiladi.

XULOSA

Texnologiya ijodiy fikrning tutashgan nuqtasi - sun'iy intellekt san'ati zamonaviy san'atning yangi bosqichini anglatadi. AI Art inson o'rnini egallamaydi, balki inson g'oyalarini tezroq va kengroq ko'lamda amalga oshirishga yordam beruvchi kuchli quroldir. Bu soha ijodkorlarga yangi imkoniyatlar yaratib, ularning ish jarayonini osonlashtiradi. Kelajakda an'anaviy mahurat va texnologik imkoniyatlarni birlashtirgan ijodkorlar eng muaffaqiyatli san'atkorlarga aylanishadi. Su'niy intellektning rivojlanishi kelajakda san'at olamida inqilobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Inson va texnologiyaning birgalikdagi ijodi orqali yaratiladigan asarlar esa bizning dunyoqarashimizni kengaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. OpenAI. (2023). DALL-E 3 System Card and Research Overview. OpenAI Publications.
2. Manovich, L. (2020). Cultural Analytics. The MIT Press.
3. Mazzone, M., & Elgammal, A. (2019). Art, creativity, and artificial intelligence. Arts, 8(1), 26.
4. Miller, A. I. (2019). The Artist in the Machine: The World of AI-Powered Creativity. The MIT Press.

5. Ramesh, A., Dhariwal, P., Nichol, A., Chu, C., & Chen, M. (2022). Hierarchical text-conditional image generation with CLIP latents (DALL-E 2). arxiv preprint arXiv:2204.06125.
6. Rombach, R., Blattmann, A., Lorenz, D., Esser, P., & Ommer, B. (2022). High-resolution image synthesis with latent diffusion models (Stable Diffusion). IEEE/CVF Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR), 10684–10695.
7. Eroxim.A.V.(2022).Iskusstvennyiy intellekt v sovremennom izobrazitel'nom iskusstve: filosofsko-esteticheskiy analiz. Iskusstvo i obrazovaniye, 3(137), 45-54.
8. Turaev, B. O. (2023). Raqamli madaniyat va virtual san'at taraqqiyotining estetik tamoyillari. Falsafa va huquq jurnali, 2, 88-92.
9. Tasviriy san'at asarlarini idrok etishning turli oqimlardagi ko'rinishlari. Ilm-fan va texnologiyalar jurnali.scientech